

**UDC: 91.796.5**

## **O'ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**Usmonov Sardor**

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filali

Email: [usmonovsardor571@gmail.com](mailto:usmonovsardor571@gmail.com)

**Annotasiya:** Maqolada qishloq turizmi bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning uzoq yillik boy tajribalari, ularning bu sohadagi erishgan yutuqlari respublikamizda mazkur sohani rivojlanirish nuqtai nazaridan o'raganildi. Maqolada nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqliklarga asoslangan holda tahlil, taqqoslash, statistik kabi usullardan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** qishloq turizmi, ekologik turizm, ekologik madaniyat, turistik infratuzilma, turistik raqobat, turistik madaniyat.

### **KIRISH**

Bugungi kunda qishloq turizmi taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotida borgan sari asosiy daromad keltirayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotining bir qismi ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'limgan sohalarnig yo'lga qo'yish orqali barqarorlashuvga erishmoqda. Sohani alohida e'tiborli jihatlaridan biri, turizmning rivojlanishi sanoatlashmagan yoki bunday imkoniyat mavjud bo'limgan, tabiiy hamda ishlab chiqarish resurslari kam bo'lgan mintaqalarda ishlab chiqarish turlari bilan bog'liq bo'limgan yangi muqobil daromad manbaining vujudga kelishini ta'minlaydi.

## ASOSIY QISM

Turizmnning ushbu faoliyat sohasi ham keng tushuncha bo‘lib, unda, asosan, ko‘plab mamlakatlarda mavjud bo‘lgan tabiiy resurs zaxiralardan faol foydalangan holda, turli dasturlar amalaga oshiriladi. Qishloq turizmi – tashrif buyuruvchilarining qishloq hududlarida dam olishi, aholi turmush tarzi bilan tanishishi, boy madaniyat ko‘rinishlari hamda qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq sohalarning ishtirokchisi bo‘lishga imkon berishi bilan birgalikda, sof, tabiiy mahsulotlardan ham iste’mol qilishni taqdim eta oladigan sayohat hisoblanadi. Dunyo mamlakatlarida rivojlangan shaharlashuv jarayoni kuzatilyotgan bir sharoitda insonlarning qishloq hududlarida dam olib, hordiq chiqarishiga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Rossiyalik olim A.B. Zdorov tomonidan qishloq turizmi tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi “qishloq turizmi — qishloq xo‘jaligiga yo‘ldosh tarmoq bo‘lib, dam olishni tashkil etish orqali qishloq aholisini ish bilan ta’minalash va kontingentni jalb etish orqali fuqarolarning daromadlari va asosiy ishlab chiqarish hajmini oshirishdir”[3, 12 c].

Sohaga oid tadqiqotlar natijasidan ma’lum bo‘lgan ayrim xulosalarga tayangan holda aytish mumkinki, qishloq hududlarida band bo‘layotgan aholining asosiy vaqt mavsumiy xususiyatga ega hisoblanadi. Qishloq hududlarida mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi sohalari bilan daromadga ega bo‘lmoqda. Mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan bu soha esa daromadning muqobil manbayi sifatida qo‘sishimcha sohalarni yaratish muhimligini ko‘rsatadi. Qishloq hududlarida ish o‘rinlarinig yaratilishi ayni sohada band bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi daromadlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmasligi xalqaro tajribalardan ma’lum.

Mamlakatimizning turistik salohiyati mazkur soha rivojlangan mamalakatlar kabi yetarli resurslarga ega. Mavjud imkoniyatdan unumli foydalanish uchun mintaqalardagi turistik resurslarni yanada yaxshiroq o‘rganish zarurligini keltirib chiqaradi. Ammo resurslar mavjud mintaqalardagi ijtimoiy vaziyatlar esa soha oldida turgan va hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalarni tadqiq etishni yuzaga chiqaradi. Ushbu vaziyatda shuni unutmaslik kerakki, har bir hudud o‘zining

mintaqaviy shakllanish va sivilizasiyon rivojlanish xususiyatidan kelib chiqib, turli urfatlarni saqlab qolgan.

Qishloq hududlarini rivojlantirishning yana bir yo‘li sifatidagi biz fikr yuritayotgan qishloq turizmida ham xalqaro tajribalardan unumli foydalanish chorasi sifatida investisiyalarni jalb qilish usulini ham ko‘rib o‘tishimiz kerak hisoblanadi. Bu sohada faoliyat yuritayotgan yoki rejalashtiryotgan subektlar investisiyalar loyihamalarini ham yaratishi ularning faoliyatini moliyalashtirish manbasi bo‘lishiga erishish mumkin. Shaharlashuv jarayoni rivojlangan hudulardagi aholi qatlamlarini dam olishning ekologik toza hududlarda tashkil etish imkonini beruvchi soha turiga homiylik qilish hamda daromad olish imkoniyatini beruvchi tizimga taklif etish lozim. Xalqaro doiradagi bu tizimda turistik klasterlar tizimi ham faoliyat yuritib kelmoqda.

**Material va metodlar.** Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) turizm sohasida butun dunyo xalqaro turizmini muvofiqlashtiruvchi ular haqidagi ma’lumotlarni va eng yaxshilarini sayyohlarga taqdim etuvchi tashkilot hisoblanadi. Ushbu tashkilot turizmning barcha turlarini baholab ham boradi. Bunda aynan qishloq turizmiga ham alohida bo‘limlarning mavjudligi o‘z navbatida xalqaro ahamiyatga ham molik bo‘lganligini ko‘rsatadi. UNWTO Bosh kotibi Zurab Pololikashvili: “turizm butun hudud bo‘ylab imtiyozlarniadolatli taqsimlash va mahalliy jamoalarni kuchaytirish orqali ijtimoiy birdamlik va inklyuziya haydovchisi bo‘lishi mumkin”, deydi [3]. “Ushbu tashabbus turizmni rivojlantirish va farovonligining kuchli haydovchisiga aylantirishga sodiq bo‘lgan qishloqlarni tan oladi”. UNWTO tomonidan eng yaxshi sayyohlik qishloqlari: taniqli madaniy va tabiiy boyliklarga ega bo‘lgan, qishloq va jamoat qadriyatları, mahsulotları va turmush tarzini saqlaydigan va targ‘ib qiladigan, innovasiyalar va barqarorlikka aniq sodiq bo‘lgan qishloq turizmining ajoyib namunasi bo‘lgan qishloqlarni tan oladi. Uning barcha jihatlari – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik, o‘rganib chiqilgan.

UNWTO turizm tarmog‘ining eng yaxshi sayyohlik qishloqlari: tarmoq tajribasi va yaxshi amaliyotlar, o‘rganish va imkoniyatlar almashish uchun e’tibor qaratadi. Unda UNWTO tomonidan “eng yaxshi turizm qishlog‘i” deb tan olingan qishloqlar,

modernizasiya dasturida ishtirok etayotgan qishloqlar vakillari, shuningdek, qishloq taraqqiyoti uchun turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi ekspertlar, davlat va xususiy sektor hamkorlari ishtirok etadi [4]. 2021-yilda o‘tkazilgan ayni shu baholashda jami 174 ta qishloq tashkilotga a’zo 75 ta davlat tomonidan taklif qilingan (har bir a’zo davlat maksimal uchta qishloqni taqdim etishi mumkin). Ularning 44 tasi UNWTO tomonidan eng yaxshi sayyohlik qishloqlari deb topildi. Ularning orasida Bekhovo, (Rossiya Federatsiyasi) Bkassine, (Livan) Kastelo Rodrigo, (Portugaliya) Kuetsalan del Progreso, (Meksika) Xidi, (Xitoy) Yunan, (Xitoy) ham mavjud. Yana 20 ta qishloq tashabbusni yangilash dasturiga kiradi [5].

Qishloq turizmi Italiya, Ispaniya, Irlandiya, Fransiya, Shvetsariya, Skandinaviya Xitoy mamlakatlarida rivojlanish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Qishloq turizmidan keladigan daromad turizmdan keladigan daromadning 10-20%ini tashkil qilmoqda. Bu tizimlarda ham faol borayotgan Xitoy Xalq Respublkasi tajribalari bilan tanishib o‘tamiz. Xitoy bugungi kunda rivojlaninshing barcha tarmoqlaridan faol ketayotgan mamalakat hisoblanadi. Sanoatning turli tarmoqlarida: ishlab chiqarish, yengil va og‘ir sanoat, oziq-ovqat sanoati, tog‘-konchilik, qurilish, shaharsozlik va ko‘plab yondosh sohalar qatorida xizmatlar sohasi ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakat hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan turizm sohasi ham tizimli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u 2020-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida 4,5 foizini egallagan. Shu yili Xitoyning sayyohlik va turizm sanoatining YaIMga qo‘sghan hissasi o‘sishi -59,9 foizni tashkil etdi, bu o‘tgan yilgi 9,3 foizdan past bo‘ldi [4]. Umumiy sayohat va turizm xarajatlarining taxminan 88 foizi mahalliy sayohatchilardan kelib chiqqan. Shu bilan birgalikda Xitoyda qishloq turizmi ham yaxshi rivojlangan bo‘lib, umumturizmdagi ahamiyati oshib bormoqda [5]. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan keyin aholi o‘rtasida ekologik toza hudularda dam olishga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli oshib borganligini ko‘rish mumkin. Xitoy turizmida ayni ekologik turizmnинг o‘zi yaxshi rivojlangan.

## XULOSA

Tobora rivojlanib borayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoqlardan bo‘lgan qishloq turizmi ham kelajak sohalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning bugungi kundagi iqtisodiyoti hamda kelajakdagi muqobil daromadli sohasi uchun zamin yaratish ham qishloq turizmi uchun muhim sanaladi. Qishloq turizmi bugungi kunda qishloq hududlarini rivojlantirishning xalqaro e’tirof etilgan sohasi bo‘lib qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagи PQ-3217-son «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagи PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Здоров А.Б. Организационно-экономические основы развития аграрного туризма. Автореферат. Москва – 2011.
4. Unwto Announces List Of Best Tourism Villages 2021 <https://www.unwto.org>
5. “Rural Tourism Development in China: Principles, Models, and the Future” J. Mt. Sci (2013) 10: 116-129 DOI: 10.1007/S11629-013-2501-3
6. Amriddinova R., Islomov S. Qishloq turizmi hamda agroturizm va qishloq turizmini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati. Builders of The Future. 5-9 p. <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-2>
7. USMANOV M., IBRAGIMOV L., BORATOVA G. TOURISM CLUSTER DEVELOPMENT AS AN IMPORTANT FACTOR IN CREATING NEW JOBS //ЭКОНОМИКА. – №. 10. – С. 321-328.
8. Ibragimov, L. (2016). The Economic Role of the Geographical Potential of Samarkand Region. International Journal of Humanities Social Sciences and Education (IJHSSE), 4, 72-77.

9. Baratova G. et al. Hududlarda turizmni innovatsion rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 696-706.
10. Ibragimov L., Ubaydullayev D., Musayev B. Recreational assessment of natural landscapes of Jizakh region //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 4. – С. 212-217.
11. Tojiyeva, Z., Ibragimov, L. 2021. Labour market and employment in Uzbekistan. In Geografický časopis, vol. 73, no.4, pp. 359-374. ISSN 0016-7193. DOI: <https://doi.org/10.31577/geogrcas>.
12. Abduramanov K. K., Ibragimov L. Z. REGIONAL CHARACTERISTICS OF DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //SEA: Practical Application of Science. – 2015. – Т. 3. – №. 1.
13. Ziyadullayevich I. L., Qizi U. D. F. Some issues of studying the impact of demographic factor on employment and labor market. – 2021.
14. Ziyadullayevich I. L., Murodovich M. B., Sayidovch M. F. Employment Of Population And Its Geographical Study //JournalNX. – С. 163-167.
15. Тоджиева, З. Н., Ибрагимов, Л. З., & Сабирова, М. Ш. (2021). ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В РАЗМЕЩЕНИИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА. In Актуальные проблемы экологии и природопользования (pp. 127-135).
16. Ibragimov, L. (2015). Employment of population in the study of family business. In Modern view on the future of science". International Innovation Research Senter "OMEGA SAINS". International Conference Kon-76 (pp. 39-42).
17. Ибрагимов, Л. З. ЖАНУБИ-ФАРБИЙ ЎЗБЕКИСТОННИНГ МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ ВАЗИЯТ. ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА, 56.
18. Ibragimov L. Z. Importance of studying natural and geographical potential of regions in economic-geographical research (A case study of Samarkand Region) //Наука и мир. – 2016. – Т. 2. – №. 7. – С. 111-115.
19. Ibragimov L., Muminjonova S. HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YER VA SUV RESURSLARINING AHAMIYATI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 164-169.
20. Ibragimov L. Z. IMPORTANCE OF STUDYING NATURAL AND GEOGRAPHICAL POTENTIAL OF REGIONS IN ECONOMIC-GEOGRAPHICAL RESEARCH (A CASE STUDY OF SAMARKAND REGION) //SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 111.